V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAYFULLOYEVA GULNOZ SAYFULLOYEVNA

KATS EMPIRIK PROTSESSLARI UMUMLASHMALARI VA ULARNING ASIMPTOTIK XOSSALARI

01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

NAVOIY – 2023

UDK: 519.234

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAYFULLOYEVA GULNOZ SAYFULLOYEVNA

KATS EMPIRIK PROTSESSLARI UMUMLASHMALARI VA ULARNING ASIMPTOTIK XOSSALARI

**01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

NAVOIY – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM712 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http:kengash.mathinst.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdushukurov Abduraxim Axmedovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Miraxmedov Sherzod Adilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Nurmuxamedova Nargiza Saydillayevna fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 13 » iyun soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (160-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 26 » may kuni tarqatildi.
(2023 yil « 26 » maydagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d.,katta ilmiy xodim

SH.Q.Formanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Statistik tadqiqotlarning dastlabki bosqichida kuzatish natijalarini qayta ishlash va yechimlar qabul qilish qulay koʻrinishda ifodalanishi asosiy masalalardan biridir. Statistik xulosalarning sifat koʻrsatkichi nafaqat ularning hajmiga balki ularni olish usullariga ham bogʻliq boʻlib qoladi. Ammo yon atrofdagi mavjud statistik maʼlumotlar toʻliq boʻlmay, ular asosida bir yoki bir necha tasodifiy miqdorlarning nomaʼlum taqsimotlari yoki ularning funksionallari haqida statistik xulosalar chiqarishga toʻgʻri keladi. Toʻliq boʻlmagan tanlanmalar umr davomiyligi tipidagi maʼlumotlarni tahlil qilishda, sugʻurta ishida, demografiyada, astronomik tadqiqotlarda koʻplab uchrab turadi. Masalan, chidamlilikka tekshirilayotgan obʼyektlar (texnik uskunalar, individumlar) ni kuzatish jarayonida bunday toʻliq boʻlmagan sonli maʼlumotlarni uchratish mumkin. Bunday eksperimental holatlarda kuzatilayotgan tanlanmalar nafaqat bizni qiziqtiradigan tasodifiy miqdorlar, balki bizga xalaqit beruvchi, yaʼni senzuralovchi miqdorlardan ham iborat boʻlishi mumkin ekan. Bunday toʻliq boʻlmagan maʼlumotlar orqali baholanishi zarur boʻlgan asosiy xarakteristika – bu bir yoki bir necha tasodifiy miqdorlarning taqsimot qonunlaridan iboratdir.

Toʻgʻri chiziqda bir karralik, koʻp karralik hamda bir jinslik boʻlmagan bir tomondan (chapdan yoki oʻngdan), ikki tomondan yoki kuzatiladigan va kuzatilmaydigan intervallar orqali senzurlangan tanlanmalarni kuzatish mumkin. Agar kuzatilayotgan obʼyekt (uskuna yoki individum) biror qoʻshimcha faktorlar taʼsirida (bosim, temperatura, kuchlanish va shu kabilar) boʻlsa, u holda senzurlanayotgan tasodifiy miqdorlardan tashqari qoʻshimcha biror hodisalarni ham kuzatish mumkin. Bunday tasodifiy miqdorlar va hodisalar kuzatiladigan statistik modellar raqobatli risk modellari deb ataladi. Ushbu dissertatsiya ishida raqobatli risklar modelida taqsimot funksiyalari uchun Kats tipidagi empirik protsesslar ularning modifikatsiyalangan variantlari hamda integral intensivlik funksiyalari, zichlik funksiyalari, xarakteristik funksiyalarining Kats baholari orqali tuzilgan funksionallari tadqiq qilingandir. Aynan shu tipidagi masalalar proporsional intensivliklar xususiy modellarida ham tadqiq etilgandir.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega boʻlgan ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning dolzarb yoʻnalishlariga ayniqsa eʼtibor qaratildi. «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» fanining ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha halqaro standartlar natijasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi[1]. Mazkur qaror ijrosini taʼminlashda Kats empirik protsesslari va ularning asimptotikasini oʻrganish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalarning asosiy yechimi bu dissertatsiya ishining asosini tashkil etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika taʼlimi va

---

[1]Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017 yil 18 maydagi «Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida»gi 292-sonli qarori

fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirildi. IV. «Matematika, mexanika va informatika».

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. M.Kats empirik protsesslarning maxsus sinfini tadqiq qildi. Bu protsesslar parametri n ga teng bo‘lgan bog‘liq bo‘lmagan Puasson tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi yordamida qo‘shiluvchilarni maxsus tanlash yordamida empirik statistika ko‘rinishida tanlanadi. Bunday protsesslarni M.Csörgő, S.Csörgő, P.Gaenssler, W.Stute, Ya.Yu.Nikitin, L.Beghin, C.Klassen, J.Wellner va boshqalar tadqiq qilganlar.

Hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar M.Katsning klassik statistikasiga aloqador edi. Bu statistikaning muhim bir kamchiligi mavjudligi ko‘rinib qoldi. Gap shundaki, uning qiymati taqsimot funksiyasining boshqa baholaridan farqli holda 1 sonidan katta bo‘lib qolishi mumkin ekan. Ushbu dissertatsiya ishida tasodifiy senzurlanishning umumlashgan raqobatli risklar modelida tasodifiy miqdor va hodisalarning birgalikdagi taqsimotlari, ya’ni subtaqsimotlar uchun maxsus 1 sonidan oshmaydigan, modifikatsiya qilingan variantlari kiritilgan bo‘lib, ular yordamida boshqa xarakteristikalar uchun mos baholar tuzib, ular o‘rganilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirga qadar taqsimot funksiyalari uchun bunday ko‘rinishdagi kesilgan Kats statistikalari va ular yordamida tuzilgan boshqa xarakteristikalarning asimptotik xossalari o‘rganilmagan ekan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tasodifiy senzurlanishning raqobatli risklar modelida modifikatsiya qilingan Kats statistikasi va uning funksionallarining asimptotik xossalarini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klassik Kats statistikasi yordamida tuzilgan empirik protsesslarni modifikatsiya variantlarini tuzish;

modifikatsiya qilingan Kats protsesslarining og‘ishini eksponensial tengsizliklar yordamida baholash;

senzurlanishning umumlashgan modelida modifikatsiya qilingan variantlari uchun approksimatsiya natijasini o‘rnatish;

eksponensial intensivlik baholaridan tuzilgan protsesslar uchun approksimatsiya teoremalarini o‘rganish;

tasodifiy senzurlanish modelida xarakteristik funksiyani bahosini qurish va uning tekis kuchli asoslilik xossasini o‘rganish;

proporsional intensivliklar modeli (PIM) va unda taqsimot funksiyasini baholash;

PIM dagi taqsimot funksiyasi bahosini approksimatsiya qilish;

PIM dagi taqsimot funksiyasi hosilalarining yadroviy Kats baholarini tadqiq qilish;

PIM dagi zichlik funksiyasining yadroviy bahosini tadqiq qilish.

Tadqiqot ob’yekti Katsning modifikatsiya qilingan empirik baholari va ularning funksionallaridan iborat.

Tadqiqot predmeti tasodifiy senzurlanishning umumlashgan senzurlanish modelidagi modifikatsiya qilingan Kats baholari va ularning approksimatsiya xossalari.

Tadqiqodning usullari: Tadqiqot ishida empirik va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tasodifiy protsesslarning kuchli approksimatsiyasi hamda boshqa xossalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

senzurlanishning raqobatli risklar modelida taqsimot funksiyalari uchun yangi Kats baholari topilgan hamda modifikatsiyalangan empirik baholardan tuzilgan protsesslar uchun eksponensial tengsizliklar va mos approksimatsiya teoremalari isbotlangan;

eksponensial intensivlik baholaridan tuzilgan protsesslar uchun approksimatsiya teoremalari keltirilgan;

xarakteristik funksiya uchun tasodifiy senzurlanish modelida bahoning kuchli asosliligi isbotlangan;

proporsional intensivliklar modelida taqsimot funksiyasi uchun Kats bahosi qurilgan hamda taqsimot funksiyasi hosilalari va xususan zichlik funksiyasi uchun silliqlangan yadroviy baholar qurilib, ularning asimptotik xossalari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari tasodifiy senzurlanishning raqobatli risklar modelida taqsimot funksiyasi uchun modifikatsiya qilingan Kats bahosi qurilgan va ular orqali tuzilgan empirik protsesslar uchun approksimatsiya teoremalari isbotlangan hamda integral intensivliklar, xarakteristik funksiyalar, taqsimot funksiya hosilalari, zichlik funksiyalar uchun baholar qurilgan va ularning asimptotikasi o‘rganilgan. Bu natijalarning proporsional intensivliklar modelidagi o‘xshashliklari ham o‘rnatilgandir.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning asimptotik nazariyasi usullarini qo‘llash yordamida hamda matematik isbotlarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasodifiy senzurlanishning umumlashgan modellarida qurilgan Kats protsesslarining asosliligi va optimal approksimatsiya tezligiga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishining natijalari statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda, statistik baholash va gipotezalarni tekshirishda hamda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning empirik statistikaning empirik protsesslar bilan bog'liq maxsus kurslarini o'qishda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tasodifiy senzurlanishning raqobatli risklar modelida modifikatsiya qilingan Kats statistikasi va uning funksionallarining asimptotikasiga oid masalalar bo'yicha olingan natijalar asosida:

tasodifiy senzurlanishning umumlashgan modelida yig'indilar sonini bog'liqsiz Puasson taqsimotiga ega tasodifiy miqdorlar bilan almashtirish orqali hosil qilingan empirik Kats statistikasidan OT-F-4-40 raqamli «O'lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik protsesslarning asimptotik xossalarini tadqiq qilish» mavzusidagi fundamental loyihada taqsimot funksiyasi baholari asimptotik xossalariga doir teoremalarini isbotlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 30 yanvardagi №04/11-418-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi tasodifiy senzurlanishning umumlashgan modelida qaralayotgan taqsimot funksiyaning asimptotik xossalarini isbotlash imkonini bergan.

proporsional risklar modelida integral intensivlik funksiyasi yordamida qurilgan baholar orqali tuzilgan empirik protsesslardan YO-F4-07 raqamli «Kopula funksiyalari yordamida statistik baholash va gipotezalarni tekshirish» mavzusidagi fundamental loyihada empirik protsesslarning Gauss protsessi bilan approksimatsiya teoremalarini isbotlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 20 maydagi №04/11-2884-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi tasodifiy senzurlanishning raqobatdosh risklar modelida funksionallarning asimptotik xossalarini xossalarini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 92 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Senzurlanishning umumlashgan modeli. Taqsimot funksiyasi uchun Kats bahosi**» deb nomlangan birinchi bobi tahliliy va yordamchi xarakterga ega bo‘lib, dissertatsiyada ishlatilgan asosiy tushunchalar va boshqa mualliflarning ilmiy natijalari keltirilgan. Ikkinchi va uchinchi boblarda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kats protsesslarining umr davomiyligi funksionallarini approksimatsiyalarida qo‘llanilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobda senzurlanishning umumlashgan modelida tuzilgan modifikatsiya qilingan variantlari uchun approksimatsiya natijalari o‘rganilgan. Bobning birinchi paragrafida taqsimot va subtaqsimotlarning modifikatsiya qilingan Kats baholarini va ular uchun mos limit teoremalar hamda asosiy natijalar keltirilgan.

$\{\Omega, \mathscr{A}, P\}$ ehtimolliklar fazosida kuzatilayotgan $\{Z_m, m \geq 1\}$ bog‘liq bo‘lmagan va bir xil $H(x) = P(Z_1 \leq x)$ taqsimot bilan berilgan tasodifiy miqdorlardan tashqari parametri n ga teng bo‘lgan Puasson taqsimotiga ega, bog‘liqsiz $\{\nu(n), n \geq 1\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi ham berilgan bo‘lsin. Har ikkala ketma-ketlik o‘zaro bog‘liqsiz deb faraz qilamiz. Bundan tashqari, $\{\nu(n), n \geq 1\}$ ketma-ketlik $\left\{\left(A_m^{(1)}, A_m^{(2)}, ..., A_m^{(k)}\right), m \geq 1\right\}$ ketma-ketlik bilan ham o‘zaro bog‘liqsiz deb hisoblaymiz. U holda $H(x)$ va $H(x;i) = P\left(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1\right)$, $i \in J$ taqsimotlar uchun $H_n^*(x)$ va $H_n^*(x;i)$, $i \in J$ lar orqali ularning Kats empirik baholarini quyidagi ko‘rinishda kiritishimiz mumkin:

$$H_n^*(x) = \begin{cases} \dfrac{1}{n} \sum\limits_{m=1}^{\nu(n)} I(Z_m \leq x), & agar\ \nu(n) \geq 1\ bo‘lsa, \\ 0, & aks\ holda, \end{cases}$$

hamda

$$H_n^*(x;i) = \begin{cases} \dfrac{1}{n} \sum\limits_{m=1}^{\nu(n)} I\left(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1\right), & agar\ \nu(n) \geq 1\ bo‘lsa, \\ 0, & aks\ holda. \end{cases}$$

Eslatib o‘tamiz, bu ikkala baho mos ravishda $H(x)$ va $H(x;i)$ lar uchun siljimagan baho bo‘ladi.

Quyidagi empirik protsesslarni kiritamiz:

$$a_n^{(0)*}(x) = \sqrt{n}\left(H_n^*(x) - H(x)\right),\ x \in R,$$

$$a_n^{(i)*}(x) = \sqrt{n}\left(H_n^*(x;i) - H(x;i)\right),\ x \in R,\ i \in J.$$

Bu protsesslardan iborat vektor uchun quyidagi approksimatsiya o‘rinlidir.

1-teorema. *Agar asosiy ehtimollik fazosi* $\{\Omega, \mathscr{A}, P\}$ *yetarlicha boy bo'lsa, u holda shunday* $k+1$ *ta* $W_n^{(0)}(x), W_n^{(1)}(x), ..., W_n^{(k)}(x)$ *Gauss protsesslari ketma-ketliklarini aniqlash mumkinki,* $a_n^*(t) = \left(a_n^{(0)*}(t_0), a_n^{(1)*}(t_1), ..., a_n^{(k)*}(t_k)\right)$ *va* $W_n^*(t) = \left(W_n^{(0)}(t_0), W_n^{(1)}(t_1), ..., W_n^{(k)}(t_k)\right)$, $t = (t_0, t_1, ..., t_k)$ *lar uchun quyidagi o'rinli:*

$$P\left\{\sup_{t \in R^{k+1}} \left\| a_n^*(t) - W_n^*(t) \right\|^{(k+1)} > C^* n^{-1/2} \log n \right\} \le K^* n^{-r},$$

bu yerda $r \ge 2$, $C^* = C^*(r)$ *va* K^* *lar musbat sonlar. Bundan tashqari,* $W_n^*(t)$ *ning o'zi* $(k+1)$ *– o'lchovli vektor-qiymatli Gauss protsessi bo'lib,*

$$EW^{(i)}(x) = 0, \quad (x, i) \in R \times \overline{J}$$

va ixtiyoriy $i, j \in J$, $i \ne j$, $x, y \in R$ *uchun*

$$\begin{aligned} &EW_n^{(0)}(x) W_n^{(0)}(y) = \min\{H(x), H(y)\}, \\ &EW_n^{(i)}(x) W_n^{(j)}(y) = \min\{H(x;i), H(y;j)\}, \qquad (1) \\ &EW_n^{(i)}(x) W_n^{(0)}(y) = \min\{H(x;i), H(y)\}. \end{aligned}$$

$H_n^*(x)$ va $H_n^*(x;i)$, $i \in J$ Kats empirik baholari qiymati 1 sonidan musbat ehtimollik bilan katta bo'lishi mumkin. Shu boisdan, biz ularning modifikatsiya variantlarini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\tilde{H}_n(x) = 1 - \left(1 - H_n^*(x)\right) I\left(H_n^*(x) \le 1\right), \quad x \in R,$$

$$\tilde{H}_n(x;1) + \tilde{H}_n(x;2) + ... + \tilde{H}_n(x;k) = \tilde{H}_n(x).$$

$$\tilde{H}_n(x;i) = \begin{cases} H_n^*(x;i), & агар \ x < T_n^*, \\ H_n^*(T_n^*;i), & агар \ x \ge T_n^*, \end{cases}$$

bu yerda, $T_n^* = \inf\{x: \ H_n^*(x) = 1\}$.

Quyidagi teoremadagi tengsizliklar Kats statistikalarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir.

2-teorema. *Faraz qilaylik,* $\{\nu(n), n \ge 1\}$ *ketma-ketlik parametri* $E\nu(n) = n$ *ga teng Puasson taqsimotiga ega bo'lsin. U holda* $\varepsilon > 0$ *son va*

$$\frac{n}{\log n} \ge \frac{\varepsilon}{8(1+e/3)^2}, \qquad (2)$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi n *uchun*

$$P\left(\left|\nu(n) - n\right| > \frac{1}{2}\left(\frac{\varepsilon}{2} n \log n\right)^{1/2}\right) \le 2n^{-\varepsilon w},$$

$$P\left(\sup_{-\infty < x < \infty} \left|H_n^*(x;i) - H(x;i)\right| > 2\left(\frac{\varepsilon \log n}{2n}\right)^{1/2}\right) \le 4n^{-4\varepsilon w}, \ i \in J,$$

$$P\left(\sup_{-\infty<x<\infty}\left|\tilde{H}_n(x;i)-H(x;i)\right|>2\left(\frac{\varepsilon\log n}{2n}\right)^{1/2}\right)\le 4n^{-4\varepsilon w},\ \ i\in J$$

$$P\left(\sup_{-\infty<x<\infty}\left|H_n^*(x)-H(x)\right|>2\left(\frac{\varepsilon\log n}{2n}\right)^{1/2}\right)\le 4kn^{-4\varepsilon w},$$

$$P\left(\sup_{-\infty<x<\infty}\left|\tilde{H}_n(x)-H(x)\right|>2\left(\frac{\varepsilon\log n}{2n}\right)^{1/2}\right)\le 4kn^{-4\varepsilon w}$$

baholar o‘rinlidir. Bu yerda $w=\left[16(1+e/3)\right]^{-1}$.

Quyidagi $\tilde{a}_n(t)=\left(\tilde{a}_n^{(0)}(t_0),\tilde{a}_n^{(1)}(t_1),...,\tilde{a}_n^{(k)}(t_k)\right)$ vektorlarni kiritamiz, bu yerda $\tilde{a}_n^{(0)}(x)=\sqrt{n}\left(\tilde{H}_n(x)-H(x)\right)$, $\tilde{a}_n^{(i)}(x)=\sqrt{n}\left(\tilde{H}_n(x;i)-H(x;i)\right)$, $(x;i)\in R\times J$. Biz vektor-qiymatli empirik modifikatsiya qilingan $\tilde{a}_n(t)$ Kats protsessi uchun mos Gaussning vektor qiymatli protsessi bilan approksimatsiya qilish haqidagi teoremani keltiramiz.

3-teorema. *Faraz qilamiz,* $\{T_n,n\ge 1\}$ *quyidagi tengsizliklarni qanoatlantiruvchi sonli ketma-ketlik bo‘lsin: har bir* n *uchun*

$$T_n<T_H=\inf\left\{x:H(x)=1\right\}\le\infty,$$

shundayki,

$$\min_{i\in J}\left\{P\left(A^{(i)}\right)-H(T_n,i)\right\}\ge 2\left(\frac{r\log n}{2wn}\right)^{1/2}.$$

Agar ixtiyoriy $\varepsilon>0$ *uchun (2) shart bajarilgan bo‘lsa, u holda 2-teoremadagi ehtimolliklar fazosida o‘rta qiymati nolga teng bo‘lgan* $k+1$ *ta* $W_n^{(0)}(x),W_n^{(1)}(x),...,W_n^{(k)}(x)$ *- Gauss protsesslari ketma-ketliklarini shunday aniqlash mumkin bo‘ladiki, ularning kovariatsiya strukturalari (1) tengliklar bilan aniqlanadi va* $\tilde{a}_n(t)$ *hamda* $W_n^*(t)=\left(W_n^{(0)}(t_0),W_n^{(1)}(t_1),...,W_n^{(k)}(t_k)\right)$ *vektorlar uchun quyidagi munosabat o‘rinli bo‘ladi:*

$$P\left\{\sup_{t\in(-\infty;T_n]^{k+1}}\left\|\tilde{a}_n(t)-W_n^*(t)\right\|^{(k+1)}>\tilde{C}n^{-1/2}\log n\right\}\le\tilde{K}n^{-\beta},$$

bu yerda $\tilde{K}$ - absolyut o‘zgarmas, $\tilde{C}=\tilde{C}(\varepsilon)$ va $\varepsilon>0$ uchun $\beta=\min(r,\varepsilon w)$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida Kats baholari uchun foydali yordamchi tengsizliklar o‘rganilgan. Ushbu bobning uchinchi paragrafida esa integral intensivlik hamda eksponensial intensivlik finksiyalari baholari orqali tuzilgan empirik protsesslar uchun Gauss protsesslari bilan approksimatsiya teoremalari keltirilgan.

Mazkur bobning to‘rtinchi paragrafida tasodifiy senzurlanish modellarida xarakteristik funksiyalar uchun qurilgan baholarning asoslilik xossalari o‘rnatilgan. Birinchi paragrafda ko‘rib o‘tilgan statistik modelda (qulaylik uchun) $k=2$ deb tanlaymiz. Kuzatilayotgan statistik tanlanma $\{(Z_m,\delta_m),\ m=1,2,...,n\}$ bo‘lib, bu yerda $\delta_m = I(A_m)$ indikator funksiya va

$$H_1(x)=P(Z_m \le x,\delta_m =1),\ \ H_2(x)=P(Z_m \le x,\delta_m =0)$$

lar subtaqsimotlardir. $H_1(x)+H_2(x)=H(x)=P(Z_m \le x)$. Ushbu modelda $F(x)=1-\exp(-\Lambda_1(x))$ senzurlanuvchi va $G(x)=1-\exp(-\Lambda_2(x))$ esa senzurlovchi taqsimot funksiyalar hamda

$$\Lambda_1(x)=\int_{(-\infty,x]}\frac{dH_1(u)}{1-H(u)},\quad \Lambda_2(x)=\int_{(-\infty,x]}\frac{dH_2(u)}{1-H(u)}$$

funksiyalar esa mos integral intensivlik funksiyalaridir. Asosiy masala yuqorida keltirilgan juftliklardan iborat statistik tanlanma orqali

$$C(t)=\int_{-\infty}^{\infty} e^{itx}dF(x)$$

xarakteristik funksiyani

$$C_n(t)=\int_{-\infty}^{\infty} e^{itx}dF_n(x)=\int_{-\infty}^{\infty} e^{itx}e^{-\Lambda_{1n}(x)}d\Lambda_{1n}(x),\ t\in R$$

-Kats statistikasi orqali baholashdan iboratdir. Bu yerda integral intensivlikning bahosi

$$\Lambda_{1n}(x)=\int_{(-\infty,x]}\frac{dH_{1n}(u)}{1-H_n(u)}.$$

U holda oldingi olingan natijalarga asosan

$$\sup_{x\le T_n}\left|F_n(x)-F(x)\right| \overset{\partial.x.}{=} O\left(b_n^2\left(\frac{\log n}{n}\right)^{1/2}\right).$$

Endi t ning qiymatlari to‘plamini biror kengayuvchi $[-\tau_n,\tau_n]$ oraliqlarni qaraymiz. Bu maqsadda

$$\Delta_n(\tau_n)=\sup_{|t|\le\tau_n}\left|C_n(t)-C(t)\right|$$

kattalikni kiritamiz.

4-teorema. $\{\tau_n, n\ge 1\}$ *sonlar ketma-ketligi* $n\to\infty$ *da* $\tau_n\to\infty$ *bo‘lsin. U holda*

$$\Delta_n(\tau_n)\xrightarrow{\partial.x.}0.$$

Dissertatsiyaning «**Proporsional intensivliklar modellari uchun Kats empirik protsesslari**» deb nomlangan uchinchi bobida PIMda taqsimot funksiyasining hosilalari va xususan zichlik funksiyasi uchun silliqlangan yadroviy baholar qurilgan va ularning asimptotik xossalari tadqiq qilingan. Birinchi paragrafda PIM ning ta’rifi, uni tavsiflovchi lemma hamda PIM dagi taqsimot funksiyasi bahosining asimptotik xossalari tadqiq etilgan. PIM raqobatlashuvchi risklar modelida $\left(Z, A^{(i)}\right)$ ga mos kelgan $1-F(x;i)$ chidamlilik funksiyasining $H(x)$ taqsimot funksiyasi orqali

$$1-F(x;i)=\left(1-H(x)\right)^{p^{(i)}}, \; i\in J, \; x\in R \tag{3}$$

tenglik orqali ifodalanadi. Bu yerda $1-F(x;i)=\exp\left(-\Lambda(x;i)\right)$, $\Lambda(x;i)=\int\limits_{(-\infty,x]}\frac{dH(u;i)}{1-H(u)}$, $p^{(i)}=P\left(A^{(i)}\right)$ va $0<p^{(i)}<1, \; i\in J$ bo‘lsin. PIM ni xarakterlovchi quyidagi lemma o‘rinlidir.

1-lemma. (3) tenglik Z tasodifiy miqdor va $A^{(1)},...,A^{(k)}$ hodisalarning bog‘liqsizligiga ekvivalentdir.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida PIM da taqsimot funksiyasi uchun qurilgan Kats bahosi uchun approksimatsiya teoremasi isbotlangan. PIM dagi kesilgan baholarni ikkinchi bobdagidek aniqlaymiz. Bunda $\tilde{p}_n^{(i)}=\tilde{H}_n(\infty;i), \; i\in J$.

5-teorema. $\{T_n, n\geq 1\}$ *o‘suvchi sonlar ketma-ketligi shunday tanlansinki, ular*

$$T_n\uparrow T_H, \qquad b_n^{-1}=\left(1-H(T_n)\right)\geq\left(\frac{2\varepsilon\log n}{wn}\right)^{1/2}$$

hamda $\dfrac{n}{\log n}\geq\max\left\{\dfrac{r}{2w\left(1-p^{(i)}\right)^2}, \dfrac{2r}{w\left(p^{(i)}\right)^2}\right\}$ *shartlarni qanoatlantirsin. U holda* $\{\Omega, \mathcal{A}, P\}$ *ehtimollik fazosida quyidagi approksimatsiya o‘rinli bo‘ladi:*

$$P\left(\sup_{t\in(-\infty;T_n]^k}\left\|\tilde{\mathbb{Z}}_n(t)-\tilde{V}_n(t)\right\|^{(k)}>C_n\frac{\log n}{\sqrt{n}}\right)\leq kQn^{-r},$$

bu yerda $\varepsilon=r,$ $C_n=\dfrac{r}{4w}b_n^2+\left(A_4+\dfrac{r\left(1+e^{-1}\right)}{w}\right)+\dfrac{1}{ep^{(i)}}\left(A_4+\dfrac{4r}{wep^{(i)}}\right)$,

$Q=2A_5+16, \quad r\geq 2$ *va* A_4, A_5 *–o‘zgarmas sonlar hamda* $\tilde{\mathbb{Z}}_n(t)=\left(\tilde{\mathbb{Z}}_n^{(1)}(t_1), \tilde{\mathbb{Z}}_n^{(2)}(t_2), ..., \tilde{\mathbb{Z}}_n^{(k)}(t_k)\right)$, *va* $\tilde{V}_n(t)=\left(\tilde{V}_n^{(1)}(t_1), \tilde{V}_n^{(2)}(t_2), ..., \tilde{V}_n^{(k)}(t_k)\right)$, *vektor protsesslar* $\tilde{\mathbb{Z}}_n^{(i)}(x)=\sqrt{n}\left(\tilde{F}_n(x;i)-F(x;i)\right)$,

$\tilde{F}_n(x;i)=1-\left(1-\tilde{H}_n(x)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}}, \; x\in R, \; \tilde{p}_n^{(i)}=\tilde{H}_n(\infty;i), \; i\in J$ *va*

$\tilde{V}_n^{(i)}(x)=\left(1-H(x)\right)^{p^{(i)}}\left\{\dfrac{p^{(i)}W_n^{(0)}(x)}{1-H(x)}-W_n^{(i)}(\infty)\log\left(1-H(x)\right)\right\}$ *lar orqali aniqlanadi.*

Ushbu bobning uchinchi va to‘rtinchi paragraflarida PIM dagi taqsimot funksiyasi hosilalarining yadroviy Kats baholari tadqiq qilingan, xususan, zichlik funksiyasi uchun silliqlangan yadroviy baholar qurilgan va ularning asimptotik xossalari tadqiq qilingan.

PIMda aniqlangan taqsimot funksiyalarining $(r+1)-$ tartibdagi $F^{(j)}(x;i)=\dfrac{d^jF(x;i)}{dx^j},\ j=1,2,...,(r+1);\ i=1,...,k$ hosilalari mavjud bo‘lsin. $f(x;i)$ orqali $F(x;i)$ ning zichlik funksiyasini belgilaymiz $\left(f(x;i)=\dfrac{dF(x;i)}{dx}\right)$. Ushbu paragrafda biz $F^{(j)}(x;i)$ hosila funksiyalarini $\left\{\left(Z_m,\delta_m^{(1)},...,\delta_m^{(k)}\right),m=1,...,n\right\}$ statistik tanlanmalar bo‘yicha yadroviy baholash masalasini ko‘rib o‘tamiz. Buning uchun yadro funksiyalari $K(t)$ va “oyna kengligi” parametrini tanlab olamiz. Faraz qilaylik, $K(t)$ absolyut uzluksiz taqsimot funksiyasi (yadro) bo‘lib, u simmetrik va uzluksiz differensiallanuvchi $k(t)$ zichlik funksiyasiga ega bo‘lsin. $\{\mu=\mu(n),\ n\geq 1\}$ “oyna kengligi” ketma-ketligini $n\to\infty$ da $\mu=\mu(n)\downarrow 0$ va $n\mu(n)\to\infty$ shartlarni qanoatlantiruvchi etib tanlab olamiz. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$K^{(j)}(t)=\frac{d^jK(t)}{dt^j},\ K^{(j)}(t)=k^{(j-1)}(t),\ j=1,...,(r+1).$$

Quyidagi chiziqli funksionallarni kiritamiz:

$$\overset{*}{F}_n(x;i)=\int_{-\infty}^{\infty}K\left(\frac{t-y}{\mu(n)}\right)dF(y;i),\ x\in R,\ i\in J.$$

Quyidagi shartlarni kiritamiz:

(U1) $\mu=\mu(n)\downarrow 0,\ n\to\infty;$

(U2) $n\mu^{2j}\to\infty,\ j=\overline{1,(r+1)},\ n\to\infty;$

(U3) $v_j=Var\left\{K^{(j)}\right\}<\infty,\ j=\overline{1,(r+1)};$

(U4) $k(t)$ zichlik funksiyasi simmetrik: $k(-t)=k(t);$

(U5) $\int_{-\infty}^{\infty}t^{(j)}dK(t)=0,\ j=\overline{1,r},\ \lambda_1=\int_{-\infty}^{\infty}|t|^{r+1}dK(t)<\infty;$

(U6) $\lambda_2=\int_{-\infty}^{\infty}\left(K^{(j)}(t)\right)^2dt<\infty,\ j=\overline{1,(r+1)}.$

Ko‘rish mumkinki,

$$\tilde{F}_n^{(j)*}(x;i)=\frac{d^j\tilde{F}_n(x;i)}{dx^j}=\frac{1}{\mu^j(n)}\int_{-\infty}^{\infty}K^{(j)}\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)dF(y;i)=$$

$$=\frac{1}{\mu^j(n)}\int_{-\infty}^{\infty}k^{(j-1)}\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)dF(y;i),\ j=1,...,r+1;\ x\in R,$$

$F^{(j)}(x;i)$ uchun bahoni quyidagidek tanlaymiz:

$$\tilde{F}_n^{(j)}\ (x;i)=\int_{-\infty}^{\infty}\frac{1}{\mu(n)}K^{(j)}\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)d\tilde{F}_n(y;i)=$$

$$=\frac{\tilde{p}_n^{(i)}}{\mu^j(n)}\int_{-\infty}^{\infty}K^{(j)}\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)\left(1-\tilde{H}_n(y)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}-1}dH_n(y),$$

$$j=1,\dots,r+1;\ \ x\in R.$$

$F^{(j)}(x;i)$ taqsimot funksiyasining barcha uzluksiz nuqtalar sinfini $\mathbb{C}\left(F^{(j)}(\bullet;i)\right)$ orqali belgilab olamiz, $j=1,\dots,(r+1)$. Agar $T_{F(\bullet;i)}=\inf\left\{x\in R:F(x;i)=1\right\}$ belgilashni kiritsak, natijada quyidagi teoremaga ega bo‘lamiz.

6-teorema. *Faraz qilaylik (U1-U6) shartlar bajarilsin. U holda barcha* $x\in\left(-\infty;T_{F(\bullet;i)}\right)\cap\mathbb{C}\left(F^{(j)}(\bullet;i)\right)$ *nuqtalar bo‘yicha tekis holda*

$$P\left(\lim_{n\to\infty}\tilde{F}_n^{(j)}(x;i)=F^{(j)}(x;i)\right)=1,\quad j=\overline{1,(r+1)};\quad i=\overline{1,k}.$$

$F(x;i)$ ga mos kelgan $f(x;i)=\dfrac{dF(x;i)}{dx}$, $i\in J$ zichlik funksiyasining ba’zi xossalarini ko‘rib o‘tamiz. (3) ga asosan $H(x)$ ning zichlik funksiyasi $h(x)=\dfrac{dH(x)}{dx}$ ning mavjudligi shartida

$$f(x;i)=p^{(i)}\left(1-H(x)\right)^{p^{(i)}-1}h(x),\ i\in J,\ x\in R,$$

formula bilan hisoblaymiz. Unga mos yadroviy bahoni

$$f_n(x;i)=\tilde{p}_n^{(i)}\left(1-\tilde{H}_n^c(x)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}-1}h_n(x),\ i\in J,\ x\in R,$$

ko‘rinishda tanlaymiz. Bu yerda

$$\tilde{p}_n^{(i)}=\lim_{x\uparrow\infty}\tilde{H}_n(x;i)=\tilde{H}_n(+\infty;i),\ i\in J,$$

$$h_n(x)=\frac{d\tilde{H}_n^c(x)}{dx}=\frac{1}{\mu(n)}\int_{-\infty}^{\infty}k\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)d\tilde{H}_n(y),$$

$$\tilde{H}_n^c(x)=\frac{1}{\mu(n)}\int_{-\infty}^{\infty}K\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)d\tilde{H}_n(y),$$

$K(t)$ biror zichlik funksiyasi, $k(t)=\dfrac{dK(t)}{dt}$; $K(t)$ va $k(t)$ lar to‘liq variatsiyasi $v_1=Var\{K\}$ va $v_0=Var\{k\}$ chegaralangan funksiyalar, “oyna kengligi” parametri $\left\{\mu=\mu(n),\ n\geq1\right\}$ $n\to\infty$ da $\mu(n)\to0$ va $n\mu^2(n)\to\infty$ shartlarni qanoatlantiradi. Quyidagilarni belgilaymiz:

$$h_n^*(x)=\frac{1}{\mu(n)}\int_{-\infty}^{\infty}k\left(\frac{x-y}{\mu(n)}\right)dH(y),$$

$$f_n^*(x;i)=\tilde{p}_n^{(i)}\left(1-\tilde{H}_n^c(x)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}-1}h_n^*(x),\ i\in J,$$

$$\Delta_n(x;i)=\tilde{p}_n^{(i)}\left(1-\tilde{H}_n^c(x)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}-1}-p^{(i)}\left(1-H(x)\right)^{p^{(i)}-1},\ i\in J.$$

Biror $T<T_H=\inf\{x:H(x)=1\}\le\infty$ sonini

$$b^{-1}=1-H(T)>2\left(\frac{(1+\varepsilon)\log n}{2n}\right)^{1/2},\varepsilon>0 \tag{4}$$

tengsizlikni qanoatlantiradigan qilib tanlaymiz.

2-lemma. K, k *va* $\mu(n)$ *lar uchun yuqoridagi shartlar bajarilgan bo'lib,* (4) *ham o'rinli bo'lsin. U holda bir ehtimollik bilan*

$$\sup_{x\le T}\left(1-\tilde{H}_n^c(x)\right)^{-1}\le 2b.$$

7-teorema. $K(t)$ *va* $k(t)=K'(t)$ *to'liq variatsiyasi chegaralangan yadroviy funksiyalar bo'lib,* $K(t)$ *– zichlik funksiyasi bo'lsin. Bundan tashqari,* $\{\mu=\mu(n),\ n\ge1\}$ *ketma-ketlik* $n\to\infty$ *da*

$$\mu(n)\downarrow 0,\ n\mu^2(n)\to\infty$$

shartlarni qanoatlantirsin. Agar $h(x)$ *zichlik funksiyasi chegaralangan bo'lsa, u holda*

$$P\left(\sup_{x\le T}\left|f_n(x;i)-f(x;i)\right|=O\left(\left(\frac{\log n}{n\mu^2(n)}\right)^{1/2}\right)\right)=1,\ i\in J,$$

munosabat o'rinlidir.

Demak $f_n(x;i)$ baholar $f(x;i)$ lar uchun $(-\infty;T]$ oraliqda tekis kuchli asosli baholar bo'lar ekan.

Ushbu bobning beshinchi paragrafida esa PIM da ko'rsatkichli taqsimotning noma'lum parametri uchun kuchli asosli baho qurilgan.

Senzurlanuvchi X_m tasodifiy miqdorlar $F(x;\theta)=1-\exp(-\theta x),\ x\ge0,\ \theta>0$ hamda senzurlovchi Y_m tasodifiy miqdorlar $G(x;\lambda)=1-\exp(-\lambda x),\ x\ge0,\ \lambda>0$ ko'rsatkichli taqsimot funksiyalari bilan berilgan bo'lib, kuzatilayotgan tasodifiy miqdorlar esa $Z_m=\min(X_m,Y_m)$ bo'lsin, bu yerda $\delta_m=I(Z_m=X_m)=I(X_m\le Y_m)$. Asosiy masala noma'lum θ parametrni baholashdan iborat, λ esa noma'lum yoki ma'lum bo'lishi mumkin. U holda qaralayotgan model PIM dan iborat bo'lib,

$$H(x;\theta)=1-\left(1-F(x;\theta)\right)\left(1-G(x;\lambda)\right)=1-\exp\left(-(\theta+\lambda)x\right),\ x\ge0,$$

tenglik o'rinlidir:

$$1-F(x;\theta)=\left(1-H(x;\theta)\right)^p,$$

bu yerda $p = \dfrac{\theta}{\theta + \lambda}$.

Biz noma'lum parametr θ uchun $\theta = \dfrac{EZ_m}{E\delta_m}$ ifodani olamiz va θ uchun momentlar usulida bahoni

$$\tilde{\theta}_n = \frac{\int_0^{T_n} u d\tilde{H}_n(u)}{\tilde{p}_n} \tag{5}$$

ko‘rinishida hosil qilamiz. (5) bahoning kuchli asosliligi haqidagi quyidagi davo o‘rinlidir.

8-teorema. *Agar* $\varepsilon > 0$ *soni uchun yetarlicha katta* n *larda*

$$\frac{n}{\log n} \geq \frac{\varepsilon}{2(1+e/3)^2}$$

shart bajarilsa, u holda $n \to \infty$ *da*

$$P\left(\tilde{\theta}_n \to \theta\right) = 1$$

o‘rinli bo‘ladi.

XULOSA

Dissertatsiya Kats empirik protsesslari umumlashmalari va ularning asimptotik xossalarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Tasodifiy senzurlanishning umumlashgan raqobatli risklar modelida tasodifiy miqdor va hodisalarning birgalikdagi taqsimotlari, ya’ni subtaqsimotlar uchun maxsus 1 sonidan oshmaydigan, modifikatsiya qilingan variantlari kiritilgan hamda ular yordamida boshqa xarakteristikalar uchun mos baholar tuzilgan va o‘rganilgan.

2. Modifikatsiyalangan empirik baholardan tuzilgan protsesslar, integral intensivlik funksiyalaridan tuzilgan empirik protsesslar uchun mos approksimatsiya teoremalari isbotlangan.

3. Tasodifiy senzurlanish modelida xarakteristik funksiya uchun qurilgan bahoning kuchli asimptotik asosliligi isbotlanilgan.

4. PIM da taqsimot funksiyasi, uning hosilalari uchun Kats bahosi qurilgan va xususan zichlik funksiyasi uchun silliqlangan yadroviy baholar qurilgan va ularning asimptotik xossalari tadqiq qilingan.

5. PIM da ko‘rsatkichli taqsimot parametri uchun kuchli asosli baho qurilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО РИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САЙФУЛЛОЕВА ГУЛЬНОЗ САЙФУЛЛОЕВНА

ОБОБЩЕНИЕ ЭМПИРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ КАЦА И ИХ АСИМПТОТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА

01.01.05 – Теория вероятностей и математическая статистика

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Навои-2023

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образавания, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за B2022.2.PhD/FM712.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институтите.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http:kengash.mathinst.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Абдушукуров Абдурахим Ахмедович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Мирахмедов Шерзод Адылович** доктор физико-математических наук, профессор
	Нурмухамедова Наргиза Сайдиллаевна доктор философии (PhD) по физико-математическим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный транспортный университет**

Защита диссертации состоится « 13 » июнь 2023 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И.Романовского АН РУз.(Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики им. В.И.Романовского АН РУз (зарегистрирована за № 160). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4б. Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 26 » мая 2023 года.
(протокол рассылки № 2 от « 26 » мая 2023 года).

У.А.Розиков
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

Ж.К.Адашев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., старший
научный сотрудник

Ш.К.Форманов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней,
д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одним из ключевых вопросов на ранних стадиях статистических исследований является обработка результатов наблюдений и их представление в удобном виде. Качества статистических выводов зависит не только от их объема, но и от методов их получения. Однако, встречаются случаи при которых на основании неполных статистических данных необходимо делать статистические выводы о неизвестных распределениях одной или нескольких случайных величин или их функционалов. Неполные выборки распространены в анализе данных о продольжительности жизни, в страховом бизнесе, в демографии и в астрономических исследованиях. Например, в процессе наблюдения за объектами (техническими средствами, физическими лицами), испытываемыми на прочность, можно столкнуться с таким неполным количеством числовых данных. Оказывается, наблюдаемый в таких экспериментальных случаях выборка может состоять не только из интересующих нас случайных величин, но и из величин, которые нам мешают, т. е. цензуры. Основной характеристикой, которую необходимо оценить по таким неполным данным, являются законы распределения одной или нескольких случайных величин.

На прямой можно наблюдать цензурированные выборки, такие как однократные, многократные, неоднородно, цензурированные с одной стороны (слева или справа), с двух сторон или через наблюдаемые и ненаблюдаемые интервалы. Если на наблюдаемый объект (аппарат или индивидуум) воздействуют какие-то дополнительные факторы (давление, температура, напряжение и т. д.), то помимо цензурируемых случайных величин возможно наблюдение также и дополнительных событий. Статистические модели, в которых наблюдаются такие случайные величины и события, называются моделями с конкурирующими рисками. В диссертации исследуются эмпирические процессы типа Каца для функций распределения в модели конкурирующих рисков, а также их модифицированные варианты и функционалы функций интегральных интенсивностей, функции плотности, характеристических функций, построенных по оценкам Каца. Проблемы такого типа также изучались в частных моделях пропорциональных интенсивностей.

В нашей стране особое внимание уделяется фундаментальным наукам, имеющим прикладное значение, таким как современная теория эмпирических процессов. Было установлено, что проведение научных исследований по главным направлениям «Теории вероятностей и математической статистики» на уровне международных стандартов является основной задачей и активным направлением[1]. Исследования в области современной теории эмпирических процессов играют важную роль в

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистана от 18 мая 2017 года № 292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан».

исполнении постановления. Решение этих задач составляет основное содержание данной диссертационной работы.

Исследования данной диссертации в определенной степени служат решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в постановлениях №ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института Математики имени В.И. Романовского Академии Наук Республики Узбекистан» и №ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» и в других нормативно-правовых актах, касающихся фундаментальной науки.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий в республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

